

ESSE TURLARI VA ULARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Islomova Feruza Habibullayevna,
Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: feruzahabibulloh@gmail.com
Tel: +99890-277-83-77

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini, xususan yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishda yozma ish turlaridan biri sifatida amaliyotga kirib kelgan esseining turlari esse yozishni tashkil etishning, o'ziga xos xususiyatlari esse yozish ko'nikmalarini o'quvchilarda rivojlantirishning metodik mezonlari yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: esse, lingvistik tushuncha, lingvistik hodisa, ijodiy matn, kommunikativ sifatlar, Imlo me'yorlari, talaffuz me'yorlari, argumentli esse, savodxonlik, besh daqiqali esse, erkin yozish metodi.

ВИДЫ ЭССЕ ОСОБЕННОСТИ ИХ ОРГАНИЗАЦИИ

Исломова Феруза Хабибуллаевна
Иследователь Ферганского государственного университета,
Gmail: feruzahabibulloh@gmail.com
90-277-83-77

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены виды эссе, вошедшие в практику как один из видов письменной работы по совершенствованию речевых компетенций учащихся на уроках родного языка в общеобразовательных школах, в частности, навыки письменной речи, особенности организации написания эссе, даны замечания по методическим критериям развития у учащихся навыков написания эссе.

Ключевые слова: эссе, лингвистическое понятие, языковой феномен, творческий текст, коммуникативные прилагательные, орфографические нормы, нормы произношения, аргументированное эссе, грамотность, пятиминутное эссе, метод свободного письма.

TYPES OF ESSAYS AND FEATURES OF THEIR ORGANIZATION

Islomova Feruza Khabibullaevna,
researcher of Ferghana State University,
Gmail: feruzahabibulloh@gmail.com
90-277-83-77

ABSTRACT

This article examines the types of essays that have entered into practice as one of the types of written work to improve students' speech competencies in native language lessons in secondary schools, in particular, writing skills, features of the organization of essay writing, comments on methodological criteria for the development of students' essay writing skills.

Key words: essay, linguistic concept, linguistic phenomenon, creative text, communicative adjectives, spelling norms, pronunciation norms, reasoned essay, literacy, five-minute essay, free writing method.

KIRISH

So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga ilg’or xorijiy tajribalar joriy qilindi. Xorijiy tajribaga tanqidiy yondoshib, ta’lim tizimimizning milliy xususiyatlarini, mentalitetimizni inobatga oлgan holda o‘rganish va amaliyatga joriy qilish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Til ta’limida o‘quvchilar yozma nutq malakasini baholash usuli sifatida qo‘llanib kelgan diktant, bayon va insho kabi yozma ish turlari qatoriga esse ham qo‘shildi.

Esse asosan adabiy janr sifatida tadqiq qilingan.

O’tgan asrning 90-yillaridan boshlab esa pedagogikada o‘zlashtirilgan bilimlar darajasini aniqlash maqsadida o’tkaziluvchi metod sifatida qo‘llanila boshladi. Essen metod sifatida qo‘llash taklifi 1998- yilda Templ universiteti o‘qituvchilari Lee va Bropliy tomonidan ilgari surilgan.¹

Chet tilini bilish darajasini belgilovchi xalqaro IELTS, TOEFL kabi imtihonlarda, ona tili fanidan Milliy sertifikat uchun o’tkaziladigan sinovlarda esse yozma nutq (Writing) malakasini baholovchi yozma ish turi sifatida qo‘llanadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Pedagogik jarayonda essening mana shu uch ko‘rinishini farqlamaslik turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. R.P.Milrud, I.R.Maksimova kabi olimlar :

¹ Фарберман Б.Л. ,Мусина Л.Г. Интерактивные методы обучения.- Тошкент, 2002- Б. 44

“Esseni adabiy janr, ta’lim metodi va o‘quv natijalarini baholash mezoni sifatida farqlamaslik turli bahslarga sabab bo‘lmoqda,² -deb yozadi.

Esseni metod sifatida darslarda qo‘llash yuzasidan tavsiyalar o‘tgan asrning so‘nggi yillariga to‘g’ri keladi. Bu metodning o‘quvchining yozma nutqini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini o’stirishdagi ahamiyati yuzasidan fikrlar ko’plab pedagogik adabiyotlarda o’z aksini topgan. Mashhur pedagog olimlar B.L.Farberman, L.G.Musina, D.V.Safin, Z.M.Tursunova tomonidan yaratilgan “Interaktiv metodlar” qo‘llanmasida olimlar esseni tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod sifatida ko’rsatadi va “ O’n daqiqalik esse” hamda “ Argumentli esse” kabi turlari borligini aytadi.

Esse yozishga tayyorgarlik ko’rish va esse yozishning 4 bosqichini ko’rsatib beradi.³

Ko’plab adabiyotlarda esse turlaridan birini “ Besh daqiqali esse” deb ko’rsatilgan. Farberman esa bu esse turini “ O’n daqiqali esse” deb ataydi. Olimning bu tasnifi bizning nazarimizda ma’qul ko’rindi, sababi besh daqiqalik ichida dars davomida o’rganganlarini yozish o‘quvchiga biroz qiyinchilik tug’diradi. Natijada ko’zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi.

D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqovalar tomonidan yaratilgan “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanishi ” nomli metodik qo‘llanmada esse metodiga quyidagicha ta’rif berilgan: “ Texnologiya kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo‘lib, o‘rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkoninini beradi. Kichik esseni yaratishda o‘quvchilar mavzu g’oyalarini umumlashtirish,tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.”⁴

Sh.Abdullayeva, o‘qituvchi darsning so‘nggida o‘quvchilarning o‘rganilgan mavzuga munosabatini, fikrini so‘rashi, savollar berishi, qisqa “Esse” yozdirishi mumkin,- deydi,- dars oxirida esa:

- Yozilgan esseni o‘qitishi;
- esseni muhokama qildidrishi;
- Juftliklarda essening asosiy tushunchalarini muhokama etish mumkin,- deb yozadi.⁵

² R.P.Milrud, I.R.Maksimova Esse kak janr, priyom, obuchenije I instrument pedagogicheskogo izmereniya, Inostrannyye jazyki v shkole. -2020- C 254-275

³ Farberman B.L, Musina L.G, Safin D.V, Tursunova Z.M Interaktivniyi metodi obuchenije – Toshkent, 2002-C.52

⁴ Интерфаол методлар: мояхияти ва қўлланилиши / Методик кулланма. Тузувчилар: Д.Рузиева, М.Усмонбоева, З.Холикова. - Ташкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – В.36

⁵ “Yangi pedagogik texnologiyalar”(ma’ruza matni) Tuzuvchilar:Abdullayeva Sh.Sodiqova A. Toshkent -2009

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada asosan empirik metoddan foydalanilgan. O'quvchilarning esse yozish orqali yozma nutq ko'nikmalari hamda tanqidiy fikrlash malakalarining rivojlanishi kuzatish, anketa-so'rovnoma o'tkazish, eksperiment metodlari asosida kuzatildi va xulosalar chiqarildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

dars oxirida erishilgan natija albatta tekshirilishi kerak. Esse har bir dars so'nggida o'quvchilarga yozdiriladigan qisqacha matndir. O'quvchi darsda nimani o'rgandi, o'rganlariga munosabati, ya'ni chiqargan xulosasi, shu mavzuni chuqurroq o'zlashtirish uchun nimalar qilishi kerak va boshqalar haqida qisqacha matn tuzadi. Agar o'qituvchi har dars oxirida esse yozdirishni odat tusiga kirlitsa, o'quvchi dars davomida e'tiborsiz o'tirmaydi. Esse yozush malakalarini rivojlantiruvchi interfaol usuldir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, har dars so'nggida esse metodidan muntazam foydalanish o'quvchilarning har qanday yozma matnni qiyalmay yozishga o'rgatadi.

Esse – o'qitish natijalarini baholashning eng samarador usulidir, chunki o'quvchi esse yozish jarayonida, esse yozish uchun berilgan mavzuni mustaqil bajaradi va berilgan vaziyat yoki muammo bo'yicha dalillar keltirish orqali o'zining qarashlarini isbotlaydi. Shu sababli esse yozdirish orqali o'quvchilarning dunyoqarashini aniqlash mumkin. Shuning uchun esse o'quvchi nutqiy kompetentsiyasini qaydarajada shakllanganini aniqlashning juda qulay yo'lli hisoblanadi.

O.U.Avlayev boshchiligi bir qator olimlar tomonidan yozilgan "Ta'lif metodlari" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmada ham esse metodining uch turi mavjud ekanligi va bular asoslangan esse, besh daqiqalik esse va erkin yozish usuli ekanligi ko'rsatib o'tilgan⁶.

"Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi" nomli metodik qo'llanmada D.Ro'ziyeva esseni o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metod sifatida ko'rsatib, "Kichik hajmli esse texnologiyasi" deb nomlaydi va unga xos xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. Muallifning fikricha: "Esse hajm jihatidan kichik, mavzuni erkin bayon qilishga asoslangan bo'lib, ko'tarilgan muammo yoki tahlil qilinayotgan vaziyat yuzasidan shaxsiy fikr, munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. U o'quvchilar tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha, erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi."⁷

⁶ О.У. Авлаев, С.Н. Жураева, С.Р. Мирзаева. -Тошкент: Навruz, 2017 – В. 208

⁷ Интерфаол методлар: мөхияти ва кўлланилиши / Методик кўлланма. Тузувчилар: Д.Рўзиева, М.Усмонбоева, З.Холикова. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. –В. 41

D. Tojiboyeva , esse metodiga to‘xtalib quyidagi fikrlarni keltiradi: “Dars o‘tishning yangi usullari orasida esse metodi o‘ziga xos o‘rinni egallab boryapti⁸

Darslarda o‘quvchining ta’lim subyekti sifatida mavzuni qaydarajada o’zlashtirganini aniqlash va bu orqali o‘quvchining fikrlarini savodli bayon etaolishga o’rgatish maqsadida o’tkaziladigan esse metodi uch turga bo’linadi:

1. Asoslangan (Argumentli) esse.
2. Besh daqiqali esse.
3. Erkin ijod metodi.

Asoslangan esse – esseda berilgan vaziyat asosidagi savolga asosli javob keltirilgan yozma ish turidir. O‘quvchi vaziyat bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini bildiradi va uni himoya qiladi, o‘z qarahslarini himoya qilish uchun bir qancha asoslangan dalillarni keltiradi. Maqsad – o‘zining qarashlariga boshqalarni ham ishontirish.

Asoslangan esse quyidagicha tuzilishga ega:

1. Muammo yoki vaziyatga nisbatan qarashlarning bayon etilishi (1 xatboshi).
2. Bayon etilgan qarashlarni asoslash, dalil keltirish va ushbu qarashlarni qabul qilishga ishontirish.
3. Xulosa .

O‘quvchilar dars davomida yozgan asoslangan esse quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- 1.Mazmun mavzuga mos kelishi (mavzudan chetga chiqmaslik);
2. Esseda mavzuning ochib berilishi;
3. Esseda shaxsiy nuqtayi nazarning ifodalanishi, ma’lumotlar yetarliligi;
- 4.Uslub, ifoda aniqligi ;
5. Grammatik qoidalarning buzilmaganligi.

Besh daqiqali esse – o‘tilgan mavzu yuzasidan olingen bilimlarni xulosalash, mushohada qilish maqsadida dars oxirida besh daqqa davomida o‘tilgan mavzu yuzasidan nimalarni o‘rganganlarini yozish topshirig‘i beriladi. Essening bu turi o‘quvchilarning mavzuga oid o‘rganganlarini ifodalay olishiga yordam beradi va o‘qituvchiga esa o‘quvchilarning mavzuni o‘rganganlarida qaysi o‘rinlariga tushunmaganliklari, ko‘proq qaysi o‘rinlarga e’tibor qaratish kerak ekanligi borasida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ushbu yozma topshiriqni qo’llashda ta’lim oluvchilardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: o‘tilgan mavzu bo‘yicha nimalarni o‘rganganliklarini yozish va ular javobini ololmagan bitta savolni berish topshiriladi.

⁸ Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi- Toshkent: Fan va texnologiya, 2007- B.541

“Besh daqiqali esse” ni o‘qituvchi quyidagi savollar asosida yozishni taklif qilishi mumkin:

1.“Men bu ... haqida shunday o‘ylayman” yoki “mening fikrimga ko‘ra ...” savollariga javob berish;

2.Darsda o’tilgan mavzu bo‘yicha yangi sanalgan fikrni topish, tavsiflash va sharhlash;

3. O’rganilgan bilimlarining qayerda qo’llash mumkinligini bayon qilish.

Bunday esselar o‘qituvchi tomonidan baholanmasligi ham mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga juftliklarga ajralish, ishlar bilan o‘zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish topshirig’ini berishi mumkin. Bu holda o‘qituvchi 2-3 ta esseni tanlab tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi o‘quvchilar bilan muhokama qilishi va xulosalashi mumkin.

Erkin yozish metodi – bu metod besh daqiqali essening boshqa bir ko‘rinishi bo‘lib, unda o‘quvchilarga berilgan vaziyat bo‘yicha xayollariga kelgan barcha fikrlarni to‘xtamasdan yozish topshirig’i beriladi. Masalan, oquvchilarga besh daqiqa ichida “Kasblar” mavzusi bo‘yicha o‘z xayollariga kelgan barcha fikrlarni to‘xtamasdan yozish aytildi. Besh daqiqa tugaganida (ajratilgan vaqt tugagach, bu e’lon qilinadi va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt qo’shib beriladi.) ularga o‘z yozganlarini partadoshlariga o‘qib berishlarini taklif etiladi.

Bu bosqichda o‘qituvchi juftliklarga o‘z fikrlarini butun guruh bilan o‘rtoqlashishni taklif etishi yoki guruhli aqliy hujum vaziyatini o’tkazishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, ona tili ta’limida metod sifatida qo’llanib kelinayotgan esse turlari o‘quvchilarning ona tili darslarida egallagan bilim, malaka hamda ko’nikmalarini ko’rsatib beruvchi yozma ish turi sifatida qo’llanishi o‘quvchining yozma nutq malakasini egallahida muhim vositadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Фарберман Б.Л. ,Мусина Л.Г. Интерактивные методы обучения.- Тошкент, 2002- Б. 44
2. Milrud R, I.R.Maksimova Esse kak janr, priyom, obucheniye I instrument pedagogicheskogo izmereniya, Inostrannyye jazyki v shkole. -2020- С 254-275
3. Интерфаол методлар: мохияти ва қўлланилиши / Методик кулланма. Тузувчилар: Д.Рузиева, М.Усмонбоева, З.Холикова. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – В.36

4. “Yangi pedagogik texnologiyalar”(ma’ruza matni) Tuzuvchilar:Abdullayeva Sh.Sodiqova A. Toshkent -2009
5. Авлаев О С.Н. Ж ураева, С.Р. Мирзаева. -Тошкент: Навруз, 2017 – Б. 208 7. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi- Toshkent: Fan va texnologiya, 2007- B.541
6. Ismoilov, N. B. (2023). YANGI O ‘ZBEKISTONDA TA’LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 2(1), 81-88.
7. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
8. Ismoilov, N. B. (2022). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY BAG ‘RIKENGLIK VA KONFESSIYALARARO HAMKORLIKNI TA’MINLASH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 1116-1121.
9. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
10. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
11. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.